

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADOVA DILNURA ASHRAF QIZI

O‘ZBEK TILIDA KASALLIK NOMLARI LEKSIK QATLAMI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
in Philology**

Axmadova Dilnura Ashraf qizi

О‘zbek tilida kasallik nomlari leksik qatlami3

Ахмадова Дилнура Ашраф кизи

Лексический пласт названий болезней в узбекском языке25

Akhmadova Dilnura Ashraf qizi

The lexical layer of disease names in the Uzbek language49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works53

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AXMADOVA DILNURA ASHRAF QIZI

O‘ZBEK TILIDA KASALLIK NOMLARI LEKSIK QATLAMI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3253 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abuzalova Mehriniso Kadirovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Xo'jamurod Jabborovich
filologiya fanlari doktori, professor

Navruzova Muyassar Gaybullayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 2 » iyun soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14; faks: (+99865) 221-29-14; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (893 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 15 » may da tarqatildi.

(2026-yil « 15 » may dagi 13 -raqamli reyestr bayonnomasi)



B.E.Kilichev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.G'.Davronova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
koti, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.S.Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida muayyan xalqning o'zligi, turmush tarzi, tafakkuri, dunyoqarashi, o'tmishi va kelajagini aks ettirishda lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanish, madaniy nutqning bunyodkorlik kuchiga alohida e'tibor qaratish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolari orasida qo'llaniladigan, ayniqsa, shifokor va bemor muloqotidagi tibbiy birliklarga zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga kelish, ularning leksik-semantik, uslubiy-funksional, lingvopragmatik, gender xususiyatlarini ochib berish muhimdir. Tibbiy birliklar leksik-grammatik shaklining xilma-xilligi, ulardagi hissiy bo'yoqdorlik/bo'yoqsizlik, variantlilik xususiyatlari va shu kabi jihatlarga e'tibor berish bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Dunyo zamonaviy tilshunosligida tibbiyot tilini, tibbiy matnlardagi lisoniy birliklarni, mutaxassislarining o'zaro kasbiy muloqot darajasini chuqur o'rganish, tibbiy xodimlarni tayyorlashda ularning leksik zaxirasini oshirish, kasbiy ilmiy adabiyotlarni nashr etish, sog'liqni saqlash sohasida xorijiy mutaxassislar bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirish, ma'lumot olish va almashish hamda sohaviy lug'atlarni yaratish, umuman, soha lingvistikasini tadqiq etish muhim ahamiyatga ega dolzarb muammolardan biriga aylangan. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot sohasi jadal rivojlanayotganligi bois kasalliklarning xalqaro terminologik nomlari bilan bir qatorda ularning xalqona (ayrimlari terminologik bo'lmagan) nomlari qatlamini ham o'rganish zaruriyatga aylanmoqda.

Yurtimizda keyingi yillarda fanlar integratsiyasi, xususan, lingvistika bilan aniq, ijtimoiy-gumanitar fanlarning hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish davr talabiga aylanib bormoqda. "Globallashtirish sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq"¹ ekan, kasallik nomlarini ham tibbiy lingvistik asoslarda ma'naviy, vazifaviy, nominativ-motivatsion, uslubiy, yasalish xususiyatlari jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030"

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбек тилига давлат тили макоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи"// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>

strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-son “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida tibbiy leksik tizim, tibbiy leksik birliklarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, tibbiy tushunchalarning grammatik xossalari, olam lisoniy manzarasida tibbiy birliklar akslanishi kabi masalalar atroflicha o‘rganilgan. Tibbiy leksik birliklar tadqiqiga G.A.Abramova, E.A.Akimova, N.E.Mazalova, V.T.Katerinich, V.A.Merkulova, A.V.Yudin kabi rus lingvist olimlari katta qiziqish bilan qaraganlar². Jumladan, E.A.Akimova kasalliklarning terminologik bo‘lmagan nomlarini lingvomadaniy nuqtayi nazaridan o‘rganadi va xalq tabobati lug‘atiga oid tushunchalarning nomlari asosidagi motivlarning tadqiqiga to‘xtalib, nomlashning kognitiv jihatini tahlil qiladi. N.E.Mazalova, V.T.Katerinich tadqiqotlari esa rus tilida so‘zlashuvchilarning diniy-mistik qarashlari va xalq tabobati lug‘ati o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, V.T.Katerinich kasalliklarning, tana a‘zolarining, dori vositalarining xalqona va terminologik nomlari, bunday nominatsiyalarning paydo bo‘lish manbalarini ko‘rib chiqqan. V.A.Merkulova tibbiyotning semantik sohasiga mansub xalq leksikasining kelib chiqishini o‘rganib, rus tilida qo‘llanadigan kasalliklarning terminologik bo‘lmagan nomlarini boshqa slavyan tillaridagi o‘xshash nomlar bilan taqqoslagan hamda kasalliklar va ular bilan bog‘liq hodisalarning bir qator terminologik bo‘lmagan nomlarining ma’nolarini izohlagan. A.V.Yudin rus folklor matnlarida davolash bilan bog‘liq sehrli, magik nomlar korpusining to‘liq tavsifini ishlab, universal sehrgar va jodugar qahramonlar, ular yordamchilari, bashoratchilar, himoyachilar (davolovchilar) va ularning barcha funksiyalarini ko‘rsatib bergan.

Keyingi yillarda integratsion soha sanalmish tibbiy lingvistikaning taraqqiyoti davrida o‘zbek tilshunosligida tibbiyot xodimlari nutqi, tibbiy lingvistik birliklar

² Абрамова Г.А. Медицинская лексика: основные свойства и тенденции развития: автореф. дис... д-ра филол. наук. – Краснодар: КубГУ, 2003. – 46 с.; Акимова Е.А. Аксиологический компонент народных названий болезней // Вести. Моск, ун-та. Сер. 9. Филология. 2002. – № 2. – С. 5-9.; Катеринич В.Т. Термины медицины в средневековом зеркале // Вести. Моск, ун-та. Сер. 9. Филология. 1999. – № 5. – С. 127-133.; Меркулова В.А. Народные названия болезней (на материале русского языка) // Этимология. 1970. –М.:Наука, 1972. – С. 143-206.; Юдин А.В. Ономастикон русских заговоров. – М., 1997. – 270 с.

tadqiqi maxsus tadqiqot mavzusi predmetiga aylandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi³.

Bularning barchasi tibbiy nutq masalasining ahamiyatlilik darajasini belgilaydi hamda o‘zbek tilshunosligida ham shunday tadqiqotlar yaratish lozimligi va kasallik nomlarini har tomonlama turli rakurslarda o‘rganishni taqozo etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” hamda 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan “Tibbiy birliklar platformasini yaratish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tilida kasallik nomlarini bildiruvchi tibbiy atamalarning nominatsion-motivatsion, leksik-semantik, etimologik shakllanish xususiyatlarini o‘rganish va tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kasalliklarning xalqona (ayrimlari terminologik bo‘lmagan) tibbiy leksik qatlami va ularning tarixiy manbalarda qo‘llanishi hamda tadrijiy taraqqiyotini aniqlash;

“Kasallik nomlari” lug‘aviy-mavzuviy to‘da leksik birliklarining tavsifini berish va ularda mavjud leksik-semantik munosabat turlari (kasallik nomlari sinonimiyasi, polisemiyasi, graduonimiyasi) ni izohlash;

o‘zbek tilidagi kasallik nomlarining nominatsion-motivatsion xususiyatlarini asoslash hamda kasallik nomlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar tahlilini amalga oshirish;

kasallik nomlari tibbiy terminologiyaning muhim qismini tashkil qilishini dalillash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ilmiy lingvistik tadqiqotlarda, tibbiy va izohli lug‘atlarda, badiiy adabiyotlarda hamda so‘zlashuv nutqida mavjud bo‘lgan kasallikni ifodalovchi leksik birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini kasallikni bildiruvchi leksik birliklarning hosil bo‘lish jarayoni va uning xususiyatlari, leksik-semantik, lingvomadaniy, nominativ hamda motivatsion, etimologik jihatlari tashkil qiladi.

³ Абузалова М. Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine. Journal of Contemporary Issues in Business and Government (Web of scientist). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4683.; Абузалова М. Лингвистика ва тиббиёт ҳамкорлиги ижтимоий зарурат сифатида. Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Buxoro, 10-noyabr, 2021. – 17-22 b.; Файбуллаева Н. Ўзбек тили тиббий эвфемизмларининг қисқача изоҳли луғати. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 71 б.; G‘aybullayeva N.I. “O‘zbek tilida tibbiy evfemizmlar (tibbiy davriy nashr materiallari asosida)”: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Buxoro, 2019. – 149 b.; Қобилова А. Тиббий матнларда қўлланиладиган перифразалар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) France <https://conferencepublication.com> February 27th 2021; Собирова Д. Тиббий реклама матнларини яратиш усуллари. – Бухоро: Дурдона, 2021. – 73 б.; Абдулхайрова Ф.И. Ўзбек тилида тиббиёт атамаларининг метафорик манзараси: Филол. фан. бўй. фалс. доктори дисс. – Т., 2021. – Б.23; Розикова Г. Маҳмуд Кошғарий “Девон”ида қўлланган тиббиётга доир сўз ва атамаларнинг лексик-семантик таҳлили// Хоразм та’мин академияси ахборотномаси. 2020. – №9. – 187-191 б.; Navro‘zova M. O‘zbek folklori tilida tibbiy birliklarning etnolingvistik va lingvopoetik ifoda xususiyatlari: Filol. fan. bo‘y. fals. doktori diss. – Buxoro, 2023. – 142-b.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kuzatish, tavsiflash, tasniflash, statistik, qiyosiy-tipologik, kognitiv, lingvokulturologik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

leksikaga nisbatan tizim sifatida qarash lug‘aviy(semantik) maydon yoki lug‘aviy-ma’noviy(leksik-semantik) guruhlar nazariyasini shakllantiradi. Bu esa leksikani o‘rganishda semasiologik (so‘zdan tushunchaga) va onomasiologik (tushunchadan so‘zga) kabi ikkita yondashuvga asoslanishi, ular bir-birini to‘ldirishi va semantik maydon qurilishida asosiy tayanch unsurlar hisoblanishi kasallik nomlari misolida izohlangan;

kasalliklarning nomlarini aks ettiruvchi leksika o‘zbek tilining ming yillar davomida rivojlanib kelgan lug‘at fondi hisoblanib, inson kasalliklarini bildiruvchi nominatsiyalarning eng katta lug‘aviy-semantik guruhini tashkil etishi, kasallik nomlarini berishda xalqona, noterminologik, arxaik variantlarni qo‘llash mumkinligi asoslangan;

atamalar milliy tilning bir qismi sifatida polisemik, sinonimik, antonimik hamda graduonimik munosabatlarga kirishishi mumkinligi, mazkur lisoniy hodisalarni, xususan, inson salomatligi bilan bog‘liq tibbiy terminologik tizimda ham inkor etib bo‘lmasligi isbotlangan;

o‘zbek tilidagi kasallik nomlarining nominatsion-motivatsion xususiyatlari aniqlangan hamda kasallik nomlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiy terminologiyaga oid bo‘lgan kasallik nomlari va ularning nominatsion-motivatsion xususiyatlari tahlil uchun tanlab olinishi hamda ularga xos lingvistik xususiyatlarning ilmiy jihatdan o‘rganilishi aynan tibbiy terminologiya rivojiga sezilarli hissa qo‘shishi tahlil qilingan;

xalqona kasallik nomlarini oson va qulay tushunish (tushuntirish)da samaradorlikka erishish maqsadida tibbiyot sohasiga oid tashkilotlar (Buxoro viloyati Romitan tuman Tibbiyot birlashmasi, “Amiron” xususiy klinika) tomonidan lug‘atga ehtiyoj sezilib, xarid qilishga tushgan takliflarga binoan ”Kasallik nomlarini bildiruvchi xalqona birliklar so‘zligi”(lug‘at) tayyorlanib tijoratlashtirilgan;

dissertatsiya materiallari maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda manba bo‘lishi, filologiya va jurnalistika yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan darsliklar, shuningdek, soha lingvistikasiga oid ilmiy qarashlarni takomillashtirishga xizmat qilishi hamda tibbiyot ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun qo‘llanmalar tayyorlashda manba sifatida hissa qo‘shishi va tibbiy terminlarning izohli lug‘atini boyitishga ko‘maklashishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘rganilgan materiallarning respublikamiz hamda xorijlik olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning kuzatish, tavsiflash, tasniflash, umumlashtirish, qiyoslash, kognitiv hamda uslubiy-kontekstual tahlil usullari orqali dalillanganligi, tadqiqotning materiali sifatida ensiklopediyalar, soha

jurnallari, badiiy va davriy nashr materiallari asosida termin va atamalardan foydalanilganligi, tahlil hamda talqin qilinganligi, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy nashrlarda chop etilgan maqolalarda keltirilgan nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasallik nomlarini tavsiflash va ularni o'rganishda manba bo'la olishda nazariy material bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Har qanday tilda bo'lgani kabi milliy-madaniy semantika xalq og'zaki ijodi, madaniyat, o'simliklar dunyosi, tabiat, kundalik hayot, urf-odatlar, umuman, turli-tuman madaniy kodlarning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oladi va bu avloddan avlodga yetkazadigan til nominatsiyalari xalqning madaniy o'zligini shakllantiradi. Bu esa tadqiqotning amaliy ahamiyati bilan bog'liq.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'plangan materiallar va xulosalarning kommunikativ tilshunoslik, uslubiyat, tibbiyotga ixtisoslashgan ta'lim sohasida "O'zbek tilining sohada qo'llanishi", "Nutq madaniyati" kabi fanlarni o'qitishda qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va soha xodimlariga qo'llanma sifatida xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy terminologik tizimda kasallik nomlarining tutgan o'rnini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

kasalliklarning nomlarini aks ettiruvchi leksika o'zbek tilining ming yillar davomida rivojlanib kelgan lug'at fondi hisoblanib, inson kasalliklarini bildiruvchi nominatsiyalarning eng katta lug'aviy-semantik guruhini tashkil etishi, kasallik nomlarini berishda xalqona, noterminologik, arxaik variantlarni qo'llash mumkinligi asoslangan mulohazalardan;

atamalar milliy tilning bir qismi sifatida polisemik, sinonimik, antonimik hamda graduonimik munosabatlarga kirishishi mumkinligi, mazkur lisoniy hodisalarni, xususan, inson salomatligi bilan bog'liq tibbiy terminologik tizimda ham inkor etib bo'lmasligi haqidagi qarashlardan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" nomli fundamental ilmiy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 25-noyabrdagi, № 04/1-5527 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, xalqona, noterminologik tibbiy tushunchalar, inson salomatligi bilan bog'liq tibbiy terminologik tizim ma'lumotlari bilan dasturiy vosita boyitilgan;

leksikaga nisbatan tizim sifatida qarash lug'aviy(semantik) maydon yoki lug'aviy-ma'noviy(leksik-semantik) guruhlar nazariyasini shakllantiradi. Bu esa leksikani o'rganishda semasiologik (so'zdan tushunchaga) va onomasiologik (tushunchadan so'zga) kabi ikkita yondashuvga asoslanishi, ular bir-birini to'ldirishi va semantik maydon qurilishida asosiy tayanch unsurlar hisoblanishi kasallik nomlari misolida qaralgan, o'zbek tilidagi kasallik nomlarining nominatsion-

motivatsion xususiyatlari aniqlangan hamda kasallik nomlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar tahlili amalga oshirilgan misollar orqali dalillanishi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2024-yilda bajarilgan ALM-202310132634 raqamli “Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun‘iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta‘minoti platformasi va mobilli ilovasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 5-noyabrdagi 1934-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, leksikaga nisbatan tizim sifatida qarash lug‘aviy (semantik) maydon yoki lug‘aviy-ma‘noviy (leksik-semantik) guruhlar nazariyasini shakllantirilganligi platformaning mukammallashishiga xizmat qilgan;

tadqiqotdan o‘rin olgan, o‘zbek tilidagi kasallik nomlarining nominatsion-motivatsion xususiyatlari aniqlangan hamda kasallik nomlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar tahlili bo‘yicha amalga oshirgan tahlillar va qiziqarli materiallar Buxoro viloyat teleradiokanali DMning “O‘zlikni anglash” hamda “Buxoro” radiosining “Najot bilimda”, “Ijod zavqi” eshittirishlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro viloyati teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 24-apreldagi № 01-09-201-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar mazmunan boyitilgan va ma‘lumotlar aniqligi hamda izchilligi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 131 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchlilik, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Kasallik nomlari tibbiy terminologiya tizimining tarkibiy qismi sifatida”** deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda tibbiyot tili va uning o‘rganilishi, kasalliklarning xalqona tibbiy leksik qatlami, ularning

ma'nosi va lug'atlarda ishlatilishi haqida mulohazalar yuritilgan.

Bobning **“Tibbiyot tili va uning o'rganilishi”** nomli birinchi faslida zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichida turli davrlardagi dunyoqarashlar haqida atroflicha ma'lumot berilgan. Ushbu o'rinda Qadimgi Misr va Bobil tibbiyoti, ajam xalqlari orasida Buqrot, Gippokrat, Sharqda “Jolinus hakim” nomi bilan mashhur bo'lgan Galen Klavdiy va o'rta asrlarga kelib Abu Ali ibn Sino kabi tibbiyot olamining buyuk vakillari va ularning soha rivojlanishiga katta hissa qo'shgan asarlari misolida ko'rsatib o'tilgan.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot leksikasining turli qirralari, xususan, shifokor nutqi, sohaga oid terminlar bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda⁴.

Tibbiyot terminologiyasi bilan birga “termin” tushunchasining o'ziga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Bu o'rinda bir qancha tilshunos olimlarning bu boradagi fikrlarini umumlashtirgan holda “termin” tushunchasiga *“tilda umumtil qonuniyatlari (derivatsiya, semantik ko'chish, metonimizatsiya) va boshqalar asosida vujudga keladi. Odatda, termin (lotincha “terminus” – “chek”, “chegara belgisi”) fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi, atama hisoblanadi”*, – deya umumlashma ta'rif berilgan.

Zamonaviy tilshunoslikda tibbiyot tilini, tibbiy matnlardagi til birliklarini o'rganish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo tibbiyot sohasini chuqur o'rganish, mutaxassislarning o'zaro kasbiy muloqoti, tibbiy xodimlarni tayyorlashda ularning leksik zaxirasini oshirish, kasbiy ilmiy adabiyotlarni nashr etish, sog'liqni saqlash sohasida xorijiy mutaxassislar bilan ilmiy aloqalarni rivojlantirish, ma'lumot olish va almashish hamda sohaviy lug'atlarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot sohasi jadal rivojlanayotganligi bois kasalliklarning terminologik nomlari bilan bir qatorda ularning terminologik bo'lmagan nomlar qatlamini ham o'rganish zaruriyatga aylanmoqda.

Birinchi bobning **“Kasalliklarning xalqona tibbiy leksik qatlami”** nomli ikkinchi faslida zamonaviy ilmiy tibbiy nutqda kasalliklarning haqiqiy xalqona nomlari, ularning tarkibi va milliy xususiyatlariga kam e'tibor qaratilayotgani, bu so'zlar maxsus tahlil qilinmagani, faqat boshqa muammolar doirasida ko'rib chiqilganligi tadqiq jarayonida ochiqdigan.

⁴ Vikipediya ochiq ensiklopediyasi. (Elektron resurs): https://uz.wikipedia.org/wiki/Tibbiyot_deontologiyasi.; Жумаев И. Тиббий одоб ва маданият – шифокор ва беморга мадад. (Elektron resurs): <https://buxvssb.uz/tibbiy-odob-va-madaniyat-shifokor-va-bemorga-madad/>; Культура общения врача и студента. (Elektron resurs): <https://studfiles.net/preview/548345>; Мальгина Е.Н. Средства смягчения высказывания в медицинской речи: Автореф... дис. канд. филол. наук. – Самара, 2007. – 56 с.; Мирязилов А. Ўзбек нутқий этикетига доир айрим кузатишлар // Тошкент давлат педагогика университети илмий ахборотлари, 2016. – № 4 (9). – Б.61-64.; Омонтурдиев А. Професионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фан. докт. дисс. – Т., 2009. – 253 б.; Тиббиёт комусий луғати. – Т.: Комуслар бош тахририяти, 1994. – 288 б.; Шарқ ҳикоят ва ривоятлари. Биринчи китоб. (Нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи Э.Очилов). – Т.: «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2015. – 525 б.; Эрназаров Т. Шифокор деонтологияси ва тиббий ахлоқ. (Elektron resurs): <http://uzssgt.uz/cgi-bin/main.cgi?lan=u&raz=2&god=2010&mes=11&id=3335>.; Қосимов А. Тиббий терминлар изоҳли луғати. Икки жилдлик. 2-жилд. (Тахрир хайъати: Ф.Назаров, Ш.Шоабдурахмонов, А.Ҳожиёв ва б.) – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003. – 568 б.; https://www.ereading.club/chapter.php/1025286/9/Hramova_Polnyu_spravochnik_po_uh_odu_zabonnyim.html

Kasalliklar xalqona nominatsiyalarining o‘zini professional tibbiy leksikadagi ishtirokiga ko‘ra 1) *tibbiy termin sifatida qabul qilingan kasallik nomlari* va 2) *tibbiy termin sifatida qabul qilinmagan kasallik nomlari* kabi ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkinligi xususida xulosaga kelingan.

Kasalliklarning tibbiy termin sifatida qabul qilingan xalqona nomlari tibbiy lug‘atlar va ilmiy tibbiy manbalarda aks etgan, professional tibbiy muloqotda qo‘llanish doirasi keng bo‘lgan kasallik nomlari bo‘lib, ularning tibbiyot sohasi vakillari va oddiy xalq muloqotida ham faolligi kuzatilgan: *pes (vitiligo)*, *kamqonlik (anemiya)*, *sariq kasal (gepatit)*, *husnbuzar (akne)*, *sil (tuberkulyoz)*, *bosh miya yemirilishi (Kreytsfeldt-Yakob kasalligi)* va shu kabilar.

Ikkinchi guruhdagilar esa tibbiy terminologik tizimda ishtirok etmagan xalqona nomlar bo‘lib, ularni “terminologik bo‘lmagan kasallik nomlari” tarzida nomlash ham mumkin. Bunda professional nutq uchun tushunarsiz bo‘lgan va hech qanday tibbiy ilmiy manbalarda keng ishlatilmagan leksik birliklar tushuniladi. Ular kasalliklarning ilmiy nomlari bilan ma‘nodosh bo‘lgan, kundalik nutqda faol qo‘llanmaydigan, arxaizmlar toifasiga o‘tgan so‘zlar sanaladi. Bunga misol tariqasida *yurakburug‘ – diareya*, *tepki – parotit*, *kulanj – gemorroy*, *quyonchiq – tutqanoq*, *bosqi – bo‘g‘ma kasalligi*, *ko‘ksov – kuchli yo‘tal* va boshqalar keltirilgan.

“Tibbiy terminlar lug‘ati” (2013)da kasalliklar va ular bilan bog‘liq terminologik bo‘lmagan: *bavosil (gemorroy)*, *bujama (husnbuzar)*, *og‘iz suti (kolostrum)*, *govmichcha (ko‘z kasalligi)*, *quyonlab (og‘iz tirtig‘i)*, *xo‘ppoz yoki gazak (absess)*, *churra (grija)*, *ich qotishi (qabziyat)*, *ho‘l to‘ymaslik (kvashiorkor)*, *aqli zaiflik (kretinizm)*, *homiladorlik tutqanog‘i (eklampsiya)* kabi hamda 7000dan ortiq termini o‘z ichiga olgan “Tibbiyot qomusiy lug‘ati”⁵da *qorason (gangrena)*, *xafaqon (gipertoniya)*, *rishta (dirakunkulyoz)*, *lab tirtig‘i (kemtik)*, *vasvasa (kinantropiya, shizofreniya)*, *ko‘zga oq tushishi (leykoma)*, *tepki (parotit)*, *suvchechak (vetryanka)*, *temiratki (psoriaz)*, *uchuq (gerpes)*, *shabko‘rlik (gederalopiya)*, *gush (ekzema)*, *chilla (ekzema)*, *o‘sma (blastoma)*, *qo‘tir (ekzema)*, *g‘ilaylik (amlopiya)* kabi namunalar keltirilganligi aniqlangan.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tahlil qilish natijasida esa dostonlarda uchraydigan xalqona kasallik nomlari frazeologik birlik ko‘rinishida aks etishi ko‘rib chiqilgan (1- jadvalga qarang):

“1-jadval”.

Dostonlarda kasallik va ular alomatlarining mazmuni

T./r.	Doston nomi	Kasallik va ularning alomatlari ifodasi	Mazmuni
1.	“Alpomish”	“ <i>ko‘ngli siqildi</i> ”, “ <i>yuragi ezildi</i> ”	Ruhiy tushkunlik, depressiv holat
2.	“Go‘ro‘g‘li”	“ <i>shamol urdi</i> ”, “ <i>ko‘z tegdi</i> ”	Harorat yoki infeksiyaga ishonch asosidagi xalqona talqin
3.	“Rustamxon”	“ <i>o‘t bosdi</i> ”, “ <i>jinni bo‘ldi</i> ”	Yuqori isitma yoki ruhiy buzilish
4.	“Yodgor”	“ <i>Ko‘ngli og‘ridi</i> ”, “ <i>qon yutdi</i> ”	Ichki og‘riq yoki jigar va oshqozon kasalliklari

⁵ Тўрақулов Ё., Абдуллаев Н. (тахр.) Тиббиёт қомусий луғати. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. – 287-б.

Ko‘pincha, oddiy xalq vakillarining turli tibbiy terminlarni tushunmasliklari ba’zi kasalliklarni umumiy nom bilan atashlariga sabab bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Masalan, *ichog‘riq, boshog‘riq, belong‘riq* va shu kabilar. Kasalliklarni bunday umumiy nom bilan atashning boisi ushbu xastaliklar va ularning alomatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikdir.

Kasalliklarning xalqona nomlari xalqning hayotiy tajribasi va tasavvurlari asosida shakllangan. Shuning uchun xalqona nomlar aloqadorlik asosida, ya’ni belgi, sabab yoki alomatga qarab nomlanadi. Masalan: **qaltirama** (ixtiyorsiz qaltirashdan, a’zoning biror yeri ixtiyorsiz uchib turishidan iborat kasallik), **boykasal** (o‘zi og‘ir bo‘lmasa-da, parvarish talab qiladigan yoki shunday parvarish uchun bahona bo‘ladigan kasallik); **tepki** (xalqona irim-sirim yo‘li bilan davolash) kabi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“Tarixiy manbalarda kasallik nomlarining qo‘llanishi va tadrijiy taraqqiyoti”** deb nomlanadi. O‘zbek xalqining tibbiyoti haqidagi ilk yozma ma’lumotlar manbasi sifatida zardushtiylarning diniy muqaddas kitobi – “Avesto” tahlilga tortilgan. Amaliy jihatdan Avestoda uch xil davolash usuli ko‘rsatilgan. Bular: pichoq bilan davolash, ya’ni jarrohlik; o‘simliklar (terapevtik) bilan davolash va so‘z (avrash) usuli bilan davolash. Hozirgi zamon fani nuqtayi nazaridan oxirgi usulni *psixoterapiya* deb atash mumkin. 22 bobdan iborat “Vendidat” kitobida o‘lgan odamning jasadidan ehtiyot bo‘lish zarurligi, murda orqali har xil yuqumli kasalliklar tarqalishi mumkinligi, eng yomon kasalliklar – *maddalash, notavonlik, suyakning erishi, erta soch oqarishi* va boshqalar ekanligi qayd etilgan.

Keyingi qimmatli tarixiy manba sifatida Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari keltirilgan. Unda *chechak, vabo, o‘lat, moxov* kabi epidemiologik kasalliklarning nomlari va ularning belgilari haqida ishonarli fikr-mulohazalar ilgari surilgani va dunyo ilm-fanida birinchi bo‘lib chechakning yuqishiga ahamiyat e’tibor qaratib, vabo va o‘latning farqini aniqlagani, moxovni boshqa kasalliklardan ajratib ta’riflaganligi tahlil qilingan.

“Tib qonunlari”⁶ da biz bugungi kunda ham qo‘llanayotgan kasallik nomlarining tarixiy, o‘zbekona, kasallikni tavsiflashda qo‘l keladigan variantlari mavjudligi kuzatilgan (2-jadvalga qarang):

“2-jadval”.

“Tib qonunlari”da qo‘llangan ayrim kasallik nomlarining tarixiy, xalqona variantlari

Tayanch tibbiy birlik	Milliy variant
Epilepsiya	savdoyi kasallik – tutqanoq
Migren	shaqiqa – boshning bir tomonida qo‘zg‘aladigan og‘riq(I.14-b.)
Litargus	unutish kasalligi – kalla suyagining ichkarisida bo‘ladigan balg‘amli shish bo‘lib, odam hamma narsani unutadi(I.18-b.)
Apopleksiya	falaj – miya qorinchalarida kuchli tiqilma paydo bo‘lishi sababli a’zolarining sezgisiz va harakatsiz bo‘lib qolishidan iborat.
Yuz nevropatiyasi	laqva (II.53-b.) – yuz falaji

⁶ Абу Али ибн Сино. Тибб қонунлари: III жилдлик сайланма. (У.Каримов, Х.Хикматуллаев ва бошқалар). – Т.: А. Қодирий номидаги халқ тероси нашриёти, 1992. – 304-б.

Glaukoma	nazla – ko‘z ichi bosimining oshishi, ko‘ruv maydonining torayishi
Nyctalopia	shabko‘rlik – ko‘z kechasi ko‘rmaydi, kunduzi ko‘radi, lekin kunning oxirida kuchsizlanadi(73-b.)
Katarakta	ko‘zga parda tushishi
Astma	harsillash – o‘pkaga tegishli kasallik(II.85-b.)
Pnevmoniya	zotiljam – o‘pka kasalligi bo‘lib, “shusa”, “barsom” deb aytiladi(II.95-b.)
Tuberkulyoz	sil – ko‘krakda yo ko‘krak qorin to‘sig‘ida yoki o‘pkada bo‘ladi, shu oxirgi o‘pkada bo‘ladigan sildir.(II.104-b.)
Angina(o‘tkir tonzillit)	zabh – (II.110-b.)
Gepatit	sariq kasalligi
Dizenteriya	ich surish, ichburug‘
Kolit	qulanj kasalligi – ichakka og‘riq beruvchi kasallik, yo‘g‘on ichakning yallig‘lanishi
Gemorroy	bavosir – orqa anal teshigidan qon ketishi(II.204-b.)
Varicella	chechak, suvchechak, chinchechak

Bundan tashqari, Ibn Iskandar Kaykovus o‘zining “Qobusnoma”⁷ asarida *bavosil (gemorroy), tutqanoq (quyonchiq), dilgirlik, chipqon, moxov, sariq kasal* kabi kasalliklar va ularning belgilari xususida so‘z yuritgan bo‘lsa, Mahmud Koshg‘ariyning tarixiy “Devonu lug‘otit turk” asari ham tibbiyotga doir atamalarning keng qo‘llanilganligi, xalqona tibbiy birliklarning qadimdan shakllanganligi haqida muhim ma‘lumotlarni bera oladi (3-jadvalga qarang):

“3-jadval”.

“Devonu lug‘otit turk” asarida berilgan ayrim kasalliklarning terminologik bo‘lmagan nomlanishlari⁸

Tarixiy shakli	Bugungi xalqona nomlanishi
Їқ	nafas olish qiyinligi, chunonchi, muzdek suv ichib, ustidan non yegandan keyin nafas olish qiyinlashib, to‘satdan ko‘krakdan chiqadigan oqchiq, hiqichoq
У р р а / Т э ш ў к	erkaklardagi churra, dabba (o‘g‘uzcha).
Э н ў ч	ko‘zga tushgan parda, noxina
У з у з	qo‘tir – tulki o‘z uyasiga qarab irillasa, qo‘tir bo‘ladi.
Ў т у к	ich ketish va qusish kasali
А л а	pes, ola tanli odam
У ч ф у к	tumov, shamollash, uchinish
А т ф а к / Т у б у л ф а к	qorinda sariq suv yig‘ilish kasalligi; qulanj
А х с а к	oqsoq, cho‘loq
Ö р ў н	yosh bolalarning tirnoqlari yuzida bo‘ladigan oq nuqta
А н у м і	moxov kasalligi
І с і р к ä н д і	qizilcha toshishi
К э з и к	bezgak
Қ і з л а м у к	qizamiq va shunga o‘xshab toshib chiqadigan toshmalar

⁷ Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Т.: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1960. – 499 б.

⁸ Махмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I том. – Т.: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1960. – 499 б.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**O‘zbek tilidagi kasallik nomlarining lug‘aviy-ma‘noviy tasnifi va tavsifi**” deb nomlanadi. Bobning ilk fasli “*So‘zlarning lug‘aviy-mavzuviy guruhi tushunchasi*” deb nomlanib, unda leksemalarning mazmun guruhlari (LMG), lug‘aviy maydon(LM) haqida batafsil ma‘lumotlar berib o‘tilgan. Leksik-semantik maydonlar, ya‘ni ma‘lum tushunchalarni bildiruvchi leksemalar to‘plamiga turli turkumdagi so‘zlar kiradi: milliy tilning turli shakllaridagi frazeologik va leksik birliklari, nafaqat adabiy, balki xalq tili, lahjalar, jargonlar ham bu maydonga mansub sanaladi.

Assotsiativ-semantik maydon esa biri eslanganda xotirada unga yaqin turuvchi ikkinchi birlikning yodga tushishi bo‘lib, bir sathga yoki turli sathga oid birliklar munosabatidan tashkil topadi. Masalan, “kasallik” leksemasining assotsiativ maydonidan, asosan, *kasal, davolash, shifoxona, doktor, hamshira, kasallik varaqasi, tekshiruv natijalari, salomatlik, bandalikni bajo keltirmoq, tashvish* kabi birliklar o‘rin egallagan. Ma‘lum bo‘ladiki, assotsiativ maydon tarkibida leksik birliklar bilan birga, sintaktik birliklar ham (kasallik varaqasi, tekshiruv natijalari) o‘rin oladi. Umuman, faslda kasalliklarning nomlarini aks ettiruvchi leksika o‘zbek tilining ming yillik lug‘at fondi ekanligi asoslanib, inson kasalliklarini bildiruvchi nominatsiyalarning eng katta lug‘aviy-semantik guruhini tashkil etishi izohlangan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Kasallik nomlari**” **lug‘aviy-mavzuviy to‘da leksik birliklarining tavsifi**” deb nom olgan. Kasalliklarning tibbiy ilmiy manbalarda turli jihatdan tasniflari mavjud bo‘lib, mazkur tadqiqotda kasallik nomlarining xalqona, noterminologik variantlari tasnifi keltirilgan. “Kasallik nomlari” lug‘aviy-mavzuviy guruhida nominatsiya usullariga asoslanib, barcha leksik birliklarni to‘qqiz guruhga bo‘lish mumkinligi xususida xulosaga kelingan hamda kasallik nomlarini berishda xalqona, noterminologik variantlarni qo‘llashga harakat qilingan. Barcha leksik birliklar 9 guruhga bo‘lingan:

1. Tana a‘zosi bilan bog‘liq kasallik nomlari: *ko‘z kasalliklari, tomoq kasalliklari, oyoq kasalliklari, bosh og‘rig‘i, bo‘yin og‘rig‘i, qorin og‘rig‘i* va boshqalar.

2. Titroq xuruji bilan bog‘liq kasallik nomlari: *tetanus (qoqshol), gepatit (sariqlik), epilepsiya (tutqanoq), parkinson (falaj), alsgeymer kasalligi (xotira buzilishi bilan kechadigan og‘ir ruhiy xastalik), diffuz bo‘qoq, buyrak va jigar yetishmovchiligi.*

3. Transliteratsiya asosidagi kasallik nomlari: Ma‘lumki, tibbiyotning shakllanishi Qadimgi Yunonistonga borib taqaladi, shuning uchun kasalliklarning ba‘zi nomlari asl shaklida saqlanib qolgan. Masalan, *podagra* – (poús ágrā) qadimgi yunoncha so‘z bo‘lib – *oyoq tuzog‘i*, ya‘ni bo‘g‘imlarning kasalligi bo‘lib, uning etimologiyasida modda almashinuvi buzilishi ma‘nosi mavjud. *Kesarcha kesish* (lot. *sectio caesarea*, *sectio* – “kesim” va *caedo* – “kesaman”) sun‘iy tug‘ruq orqali jarrohlik yo‘li bilan homilaning chiqarib olinishi.

4. Payt/faslga aloqador kasallik nomlari: *lunatik (oyparast), oftob urishi.*

5. Ommaning e‘tiqodiga aloqador kasallik nomlari: *epidemik (vabo, o‘lat, chin chechak...)* kasalliklarning kechishini ham insoniyatning gunohlari uchun

Xudoning jazosi sifatida talqin etilgan. Qoraqurt chaqqanda o‘qiladigan afsundular namunalar asosida ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, xalq orasida jinlar, parilar, yovuz ruhlar va shunga o‘xshash tushunchalarga borib taqaladigan kasalliklar ham mavjud bo‘lib, *jinni bo‘lmoq, yuragi tushmoq (yuragi yorilmoq)* shular jumlasidandir.

Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida go‘ristondan qo‘rqub qaytgan Unsinga mozordan olingan tuproqni suvga qo‘shib ichirish odatini kuzatish mumkin:

Nodirabegim Unsinning savoliga javob bermadi, tovush chiqarmay yana ham qattiqroq yig‘lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo‘ydi; so‘ng o‘sha chog‘i odam yuborib go‘ristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim piyola suvga chayib Unsinga tutdi.

– *Ich jigarim, qo‘rqansan... Go‘ristonda qo‘rqanga go‘ristonning tuprog‘i davo bo‘ladi.*

6. Belgi (alamat)ga asoslangan kasallik nomlari: *behushlik (hushsizlik), chechak (suvchechak), sarg‘ayma, qizilcha, gov mijja, gulafshon, quyonlab, filoyoq, tutqanoq, ichburuq, ko‘kyo‘tal, dilgirlik (ko‘z va labning uchishi), chipqon (etim.chipiqan, chilonjiydaga o‘xshash qizil yara)* kabilar.

7. Tovush taqlidiga asoslangan kasallik nomlari: *hiqichoq, xurрак, aksirash, duduqlanish* va boshqalar.

8. Insonning jismoniy va ruhiy nuqsoni bilan bog‘liq kasallik nomlari: *nogironlik, kar, cho‘loq, ko‘r, bukri, g‘ilay, kal, soqov, o‘rdak yurish, aqli zaif* va boshqalar.

9. Hayvon va hasharotlardan yuqadigan kasallikni ifodalovchi nomlar: *afg‘on yara, quturish, it tifi, kuydirgi, kana va burgalar orqali yuqadigan kasallik* nomlari qayd etilgan.

Tibbiy terminologik tizim uchun ham lug‘aviy-ma‘noviy munosabat turlaridan sinonimiya (ma‘nodoshlik), graduonimiya (darajalanish), polisemantiklik (ko‘pma‘noviylik) xosligi qayd etilib, bu lingvistik hodisalar kasallik nominatsiyalarida dalillangan.

Sinonimlar kontekstga kiritilganda ularning ma‘nosi nutqning ma‘lum bir vaziyatiga, ilmiy nazariyaga va hokazolarga qarab turli xil semalarga ega bo‘lishi mumkin. Sinonimiyaning bu turi, odatda, bir qancha lingvistik atamalar bilan belgilanishi misollar asosida tahlil qilingan:

1. **Kvazionimlar** (bir xil tushunchani bildiruvchi, ammo barcha kontekstlarda ham bir-birini almashtirib bo‘lmaydigan, turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llaniladigan atamalar tushuniladi): *nefrolitiaz – buyrak tosh kasalligi, daltonizm – rang ko‘rliги, alsgeymer – xotira yo‘qolishi; xolelitiaz – o‘t tosh kasalligi, gemofiliya – qon ivimasligi, poliomiye lit – shol* va boshqalar.

2. **Parasionim** (qo‘shimcha semali terminlar): *saraton* (odam yoki hayvonlarning ichki va tashqi a‘zolaridagi epiteliy to‘qimasidan rivojlanadigan, hayot uchun xavfli o‘sma) – *oqqon* (turli shakllarda, asosan, qon va suyak iligi saratonining nomidir); *vabo* (o‘tkir yuqumli kasallik nomi bo‘lib, asosan,

tananing suvsizlanishi bilan bilan kechadi) – *o'lat* (odam va hayvonlarda o'lat tayoqchasi qo'zg'atadigan, yoppasiga o'linga sabab bo'ladigan o'tkir yuqumli kasallik).

3. **Variantlar** (bir tizimda bir vaqtning o'zida bir xil funksiyani bajaradigan va bir-biridan tarqalishi, chastotasi, mahsuldorligi bilan farq qiladigan terminlar): *dizenteriya* – yunoncha diz. va enteron “ichak” so'zlaridan olingan bo'lib, yo'g'on ichakning zararlanishi, ich ketish, qorinning burib og'rishi va organizmning zaharlanishi bilan kechadigan o'tkir infeksiyon kasallik⁹. *Ichburug'* – yo'g'on ichakning yallig'lanishidan iborat o'tkir yuqumli kasallik bo'lib, O'rta Osiyo sharoitida ko'proq yoz mavsumida uchraydigan ichak xastaligidir.

Tibbiyot sohasida ko'p ma'noli so'zlarning qo'llanilishi terminologik tizimning ajralmas qismi sanaladi. Bundan tashqari, professional muloqotning muhim vositasi bo'lib, tibbiy bilimlarni uzatishning samarali usuli, desak yanglishmagan bo'lamiz. Hozirda yangi tibbiy tushunchalarni shakllantirish vositalari qatorida ko'chma ma'noli birliklarga ham ehtiyoj sezilmoqda.

Tadqiqotda kasalliklarni nomlashda ularning paydo bo'lishi va shu kasallik xususida jamiyatning qarashlari, munosabati, davr va vaziyat omili kabilar ham aks ettirilishi maxsus misollar asosida tahlil qilingan. Masalan, “**moxov**” kasalligi “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da asli arabcha “maxv” so'zidan olingan bo'lib, “*yo'q qilish yoki chetlatish*” degan ma'noni anglatishi izohlangan. Ushbu kasallik yuqumli va bedavo bo'lganligi uchun ham insonlar ushbu kasallikni yuqtirib olishdan juda cho'chishgan. Shu sababdan kasallikni yuqtirib olganlar jamiyatdan chetlatilgan, insonlar yashamaydigan hududlarga yuborilgan, to'g'rirog'i, haydalgan yoki surgun etilgan, yoki bunday bemorlar butunlay “yo'q qilingan”. Bu esa ushbu nominativ birlikning polisemiya munosabatida kishilar nutqida davom etishini ta'minlaydi. Jumladan, “moxov” so'zi hali-hamon (garchand bugungi kun tibbiyoti uchun xavfli kasallik hisoblanmasa-da) o'zbek jamiyati nutqida “kam gapiradigan, hammadan ajraladigan, hech kimga qo'shilmaydigan, jamiyatda nofaol” insonlarga nisbatan ishlatilishi namuna asosida kuzatilgan: – *Qo'shnilar uni yakka moxovga chiqarib, na ta'ziya va na to'y-hashamga aytmay qo'yishgan* (H.Nazir, O'tlar tutashganda).

O'ndan ortiq kasalliklarning xalqona nomlari turli kontekstlarda ko'chma ma'noda qo'llanib, polisemiya hodisasini yuzaga keltirishi isbotlangan.

So'zlarning o'zaro ma'noviy munosabatlariga ko'ra, ma'lum darajalanish (**graduonimik**) qatorini hosil qilish jarayoni quyidagi tibbiy terminologik birliklar tahlilida ko'rib chiqilgan:

1) *qon bosimining pasayishi – qon bosimining me'yorlashuvi – qon bosimining ko'tarilishi;*

2) *kal – siyrak soch – qalin soch;*

3) *duduqlanish – soqovlik – kar-soqovlik (surdomutizm);*

4) *yengil vazn – o'rtacha vazn – ortiqcha vazn.*

⁹ Uz.m.wikipedia.org/wiki/Dizenteria.

5) *Adaktiliya* bu – **barmoqsizlik**, *oligodaktiliya* esa barmoqlar sonining me'yoriy miqdordan kamligi, ya'ni "**kam barmoqlilik**", *polidaktiliya* esa barmoqlar sonining (xalq tilida "**olti barmoqlilik**" nomi bilan tanilgan) me'yoriy miqdordan ortiqlik kasalligi (1-rasmga qarang):



“1-rasm”. Barmoqsizlik – kemptik (kam barmoqlilik) – olti barmoqlilik kasalliklari orasida graduonimik munosabat

Bobning “**Kasallik nomlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar tahlili**” nomli uchinchi faslida maqollar, matallar, rasm-rusum, urf-odat kabi omillar ta’sirida tibbiyot sohasida xalqimiz nutqida faol qo‘llanib kelayotgan bir qator kasallik nomlari bilan bog‘liq lingvokulteremalar quyidagicha tahlil qilingan:

Tepki. Ushbu kasallikni davolash usullari xalqimizning urf-odat va irim-sirimlari bilan bog‘liq. Ya’ni, tepki bo‘lgan bemor shifokorga murojaat qilmaydi, aksincha, yon atrofidagi egizak farzandlari bor biror bir ayol kishining uyiga boradi va o‘sha ayol bemorning boshini eshik ostonasiga qo‘yib, tepki bo‘lgan yuziga oyog‘i bilan sekin-sekin uch marta tepib qo‘yadi. Shu sababli ham bu kasallikning nomi xalqimiz orasida “teпки” deb ataladi. “Nega aynan egizak farzand ko‘rgan ayol?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Xalqimiz azal-azaldan egizak farzand ko‘rgan ayollarni tabarruk deb hisoblaganlar va xalq orasida hurmat qilganlar.

Kasalliklarning xalqona nomlari zamirida shu xalqqa oid turli irim-sirim va urf-odatlar, diniy qarashlar mavjudligi bilan birga hududiy jihatdan farqlanish ham kuzatiladi. Jumladan, Buxoro viloyatining Olot va Qorako‘l tumanlarida, odatda, ko‘zga chiqadigan, yiringli, kuchli og‘riqqa ega yara “**itirsak**” deb nomlanadi. Qiziq jihati shundaki, ushbu yara faqatgina nominatsiyasi bilan emas, balki shu nomlanishga asos bo‘lgan irim-sirimlar bilan ham diqqatimizni tortdi. Aholining qarashlariga ko‘ra, yara o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi, u “yomon ish qilinganda”, xususan, itlarga yomon munosabatda bo‘linganda, ustiga suv sepilganda chiqadi va shu ishni qilgan insonga berilgan jazo sifatida qaraladi. Bundan tashqari, ushbu yaraning paydo bo‘lishi bilan birga, uning davosi ham bevosita shu irim-sirimlarga asoslanadi, aniqroq aytganda, yuqoridagi tushunchalarning davomi sifatida qarash ham mumkin. Bunda bemor yaraning ketishi va og‘riqlarning yo‘qolishi uchun “aybini yuvishi”, ya’ni itga uch marta salom berishi kerak bo‘ladi.

